

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FIL/PED.83.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**NUROVA GULCHEXRA TISHABAYEVNA**

**INGLIZ TILIDA GAP KENGAYISHINING TARKIBIY-MAZMUNY  
TAHLILI VA UNING RUS TILIGA TARJIMASI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Philological Sciences**

**Nurova Gulchexra Tishabayevna**

Ingliz tilida gap kengashining tarkibiy-mazmuniy tahlili va  
uning rus tiliga tarjimasi..... 3

**Нурова Гульчехра Тишабаевна**

Структурно-семантический анализ расширения английского предложения и  
его перевод на русский язык ..... 21

**Nurova Gulchehra Tishabayevna**

Structural and semantic analysis of the expansion of the English sentence and its  
translation into Russian ..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**NUROVA GULCHEXRA TISHABAYEVNA**

**INGLIZ TILIDA GAP KENGAYISHINING TARKIBIY-MAZMUNY  
TAHLILI VA UNING RUS TILIGA TARJIMASI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2021.3PhD/Fil1985 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdhti.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Mirzaev Ibodulla Kamolovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Kiselyov Dmitriy Anatolyevich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Raximov Ganisher Xudoyqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor


**Yetakchi tashkilot:** **Jizzax davlat pedagogika universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «17» iyun soat 12 <sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bustonsaroy kuchasi, 93. Tel.: (99866) 233-78-43. Faks: (99866) 210-00-18; ye-mail: info@samdhti.uz.


Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61453 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bustonsaroy kuchasi, 93. Tel.: (99866) 233-78-43. Faks: (99866) 210-00-18; ye-mail: info@samdhti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «7» iyun kunida tarqatildi.  
(2023-yil «7» iyun dagi 77 raqamli reestr bayonnomasi).



  
**L.M. Tuxtasinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

  
**G'.Q. Mirsanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

  
**Sh.S. Safarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Gap tuzilishini konstruktiv tahlil qilish va uni boshqa tilga tarjima qilish xususiyatlarini o'rganish jahon tilshunosligining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda til tizimida an'anaviy so'z tartibidagi o'zgarishlarning sabab-oqibat aloqalari, qoliplarini aniqlash va farqlash hamda ularni tizimli tahlil ob'ekti sifatida ma'lum bir tartibga solishni asoslash masalalarini o'rganishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu o'zgarishlarning sabablarini aniqlashda tilshunos olimlar, hatto, erkin so'z tartibli tillarda ham har qanday o'zgarishlar gap ma'nosiga ta'sir qilishini aniqlashga muvaffaq bo'lishmoqda. Ayni paytda gapda so'z tartibi qat'iy bo'lgan tillarda kommunikativ o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanganligi, bu holat tillarning tuzilish xususiyatlari bilan bog'liqligi tufayli, bunday o'zgarishlarga ta'sir etuvchi lingvistik va nolingvistik omillarni aniqlash ham birdek muhimdir.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotida so'z tartibi qat'iy bo'lgan tillardan biri – ingliz tili gap tuzilishining konstruktiv tahlili amalga oshiriladi. Bu tahlilda hozirgi ingliz tili sintaktik jarayonlarining xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va gap tuzilishining murakkablashish omillari ochib beriladi. Tanlangan mavzu nazariy va uslubiy jihatdan takomillashmoqda, chunki bu masala bugungi kun voqeligi va ularning kelajakdagi o'zgarishlarini hisobga olgan holda, amaliy jihatdan ham qo'shimcha izlanishlarni talab qiladi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari ingliz tili bilan shug'ullanadigan tarjimonlarga kasbiy faoliyatida aniqlangan qonuniyatlarni, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalarni hisobga olish imkonini beradi. Tarjimonlar hozirgi vaqtda barcha holatlarni hisobga olgan holda, malakali tarjima qilish uchun zamonaviy uslub, usul va vositalardan foydalanish kerak. Shu munosabat bilan samarali tarjima tamoyillarini qo'llash imkoniyatlariga asoslangan tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish nazariy va amaliy jihatdan ahamiyatlidir.

Dissertatsiya tadqiqotining tanlangan mavzusi O'zbekiston Respublikasi uchun ayniqsa dolzarb. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Eng katta boylik – aql va ilm, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – ilmsizlikdir"<sup>1</sup>. Binobarin, ma'rifatga, zamonaviy bilimga va yuksak madaniyatga intilish mamlakatning barcha fuqarolari uchun hayotiy zaruratga aylanishi kerak. Ayni paytda, globallashuv sharoitida yosh avlodga chet tillarni o'rgatish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshirilmoqda<sup>2</sup>. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda, afsuski, o'zbek olimlari tomonidan sintaksisni o'rganishga katta qiziqish bildirilganligiga qaramay, O'zbekiston Respublikasida sintaktik hodisalarni tarjima qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar va shunga mos ravishda ushbu muhim masala bo'yicha tavsiyalar mavjud emas. Mazkur

---

<sup>1</sup> Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису // Национальное информационное агентство Узбекистана. – 25.01.2020. – [Электронный ресурс]. – URL: <https://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020> (дата обращения: 20.08.2020)

<sup>2</sup> Хужанова М.И. Совершенствование обучения иностранным языкам – веление времени // Молодой ученый. – 2019. – № 11 (70). – С. 352.

dissertatsiya tadqiqoti ushbu bo‘shliqni bartaraf etishga va tegishli ilmiy ishlarni yangilashga qaratilgan.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 4947-son, 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillardagi Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari, shuningdek, 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarorlari va bu boradagi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi tillarda gap tuzilishining sintaktik xususiyatlarini o‘rganishda uch guruh mualliflar – o‘zbek, rus va xorijiy mutaxassislarining asarlarini ajratib ko‘rsatish lozim.

O‘zbek tilshunosligida sintaksisni o‘rganishga ko‘plab olimlarning asarlari bag‘ishlangan bo‘lib, ular orasida o‘zbek tilidagi izofali tuzilmalarni tahlil qilgan A.Berdaliev va X.Nosirovlarning<sup>3</sup>, so‘z birikmalaridagi moslikni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan X.Mamadov va A.Berdalievlarining<sup>4</sup>, dialogik diskursda polipredikativ birliklarni sotsiopragmatik jihatdan tadqiq qilgan L.Raupovaning<sup>5</sup>, o‘zbek va rus tillarini qiyosiy tahlil qilgan Sh.Rahmatullaevning<sup>6</sup>, hozirgi o‘zbek adabiy tilining sintaktik xususiyatlarini o‘rgangan R.Sayfullaeva, B.Mengliiev<sup>7</sup>, A.Safaevlarining<sup>8</sup>, hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z turkumlarini tadqiq etgan

<sup>3</sup> Бердалиев А., Носиров Х. Ўзбек тилида изофали конструкциялар. // Ўзбек тили. – 1973. – № 3. – С. 34-42.

<sup>4</sup> Мамадов Х., Бердалиев А. Сўз бирикмаларида мослашув борми?! // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1973. – № 3. – С. 43-54.

<sup>5</sup> Раупова Л. Диалогик дискурсдаги полипредикатив birlikларнинг социопрагматик тадқиқи: филол.фанлари доктори...дисс.автореф. – Т., 2012. – 165 с.

<sup>6</sup> Рахматуллоев Ш. Ўзбек ва рус тилларини қиёслаш. – Т.: Ўзбекистан, 1953. – 270 с.

<sup>7</sup> Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т.: ЎЗМУ, 2006. – 312 с.

<sup>8</sup> Сафаев А. Исследование по синтаксису узбекского языка. – Т.: Фан, 1965. – 106 с.

F.S.Ubaevaning<sup>9</sup>, o'zbek va rus tillarining sintaktik aloqalarini tavsiflagan F.Hamraqulovning<sup>10</sup>, o'zbek va rus tillarga sintaksini o'rgangan U. Kamalovning<sup>11</sup> ham tadqiqotlari alohida e'tiborga molikdir. O'zbekiston tarjimashunosligi sohasida o'z salmoqli hissasini qo'shgan o'zbek tarjimonlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, o'zbek va rus tilidagi folklorini takomillashtirish bilan shug'ullangan A.J.Saparovning<sup>12</sup> ishari diqqatga sazovor. Uning tadqiqotida xalqning boy va o'ziga xos hayoti, shuningdek, uning falsafasi, moddiy va ma'naviy madaniyatiga urg'u bergan holda folklore asarlarni tarjima qilgan. Badiiy adabiyot orqali G'arb va Sharq madaniyati o'zaro boyitiladi. M.Xolbekov<sup>13</sup> O'zbekistonda tarjima tarixi bilan shug'ullangan, unda ingliz tilidagi matnlarni rus tiliga tarjima qilish amaliyoti yetishmasligi aytilgan. Mashhur o'zbek tarjimoni G.T.Salomov<sup>14</sup> dunyoning turli davlatlarida tan olingan o'z tarjima maktabini tashkil etdi. Hamkasblari bilan birgalikda u shekspirshunoslik, boburshunoslik, navoishunoslik doirasida qiyosiy tarjimashunoslik va rus klassik adabiyotini o'rganish bilan shug'ullangan. Olib borilayotgan tadqiqotimiz mavzusida N.A. Sa'dullayevaning doktorlik dissertatsiyasi ham qiziqarli. Tadqiqotimiz mavzusi doirasida o'zbek va ingliz tillarida yig'iq va to'liqsiz gaplarning semantik-struktur, stilistik va funktsional xususiyatlarini aniqlashga bag'ishlangan N.A.Sadullaevaning<sup>15</sup> doktorlik dissertatsiyasi juda qiziqarlidir. Tadqiqot natijalari asosida yig'iq va to'liqsiz gaplarning tarjima jarayonida stilistik xususiyatlarini aniqlash va adabiy matnlarga tahliliy yondashish uchun, matnlarda, xususan, publitsistik va badiiy diskurslarda yig'iq va yoyiq sintaktik hodisalardan foydalanishni tahlil qilish uchun muallif zarur ko'rsatmalar ishlab chiqqan. Shu bilan birga, ushbu dissertatsiyaning jiddiy kamchiligi, nazarimizda, ilmiy tadqiqot qoidalariga zid ravishda, ushbu yo'nalishdagi oldingi dissertatsiya tadqiqotlarida keltirilgan misollardan ikkinchi bor foydalanishda namoyon bo'ladi. Umuman olganda, o'zbek tilshunosligida sintaktik hodisalarni rus va ingliz tillariga tarjima qilish strategiya, usul va uslublariga bag'ishlangan dissertatsiyalar yo'qligini afsuslanib qayd qilamiz. Shu nuqtai nazardan, mazkur dissertatsiya ishi o'zbek tilshunosligi va tarjimashunosligidagi mavjud bo'shliqni to'ldirishga urinish sababli yuzaga keldi.

Rus tilshunosligida ingliz tilidagi gaplarning tuzilishi juda chuqur va tizimli ravishda o'rganilmoqda, u monografiyalar, ilmiy maqolalar, ekspert va tahlilchilarning sharhlarida taqdim etilgan. Tadqiqot mavzusi doirasida N.D.Arutyunova<sup>16</sup>, L.S.Barxudarov<sup>17</sup>, G.N.Voronsova<sup>18</sup>, V.A.Ilish<sup>19</sup>, Ye.S.

<sup>9</sup> Убаева Ф.С. Хозирги замон ўзбек адабий тилида гапнинг уюшиқ бош бўлақлари. Филол. фанлари номзоди ...дисс. – С., 1959. – 158 с.

<sup>10</sup> Хамрокулов Ф. Лингвоспецифические характеристики синтаксических связей русского и узбекского языков // Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Гуманитарные науки. – 2010. – № 2 (22). – С. 55-65.

<sup>11</sup> Камалов У.А. Оптативные предложения в русском и узбекском языках // Молодой ученый. – 2020. – № 47 (337). – С. 449-452.

<sup>12</sup> Сапаров А.Дж. Истоки и становление перевода произведений узбекского фольклора на русский язык // Вестник науки и образования. – 2020. – №9-3 (87). – С. 42-44.

<sup>13</sup> Холбеков М. Перевод и переводоведение в Узбекистане // Иностранная филология. – 2016. – № 3. – С. 16.

<sup>14</sup> Саломов Г.Т. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1966. – 388 с.

<sup>15</sup> Садуллаева Н.А. Нераспространенные и распространенные синтаксические явления в узбекском и английском языках. Автореф. докт. дисс... – Т., 2020. – 40 с.

<sup>16</sup> Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. – М.: Наука, 1976. – 382 с.

Kubryakova<sup>20</sup>, T.V. Matveeva<sup>21</sup>, G.G.Pochepsov<sup>22</sup>, A.I.Smirniskiy<sup>23</sup> ishlari qayd etish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Bu ishlarda ingliz tili gaplarida qat‘iy so‘z tartibining tabiati va mohiyati aks ettirilgan, gap bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarining kengayish imkoniyatlari, kesim va boshqa gap bo‘laklarining murakkablashuvi qanday sodir bo‘lishi ko‘rsatilgan. I.P.Ivanova, V.V.Burlakova va G.G.Pochepsovlarning o‘quv qo‘llanmasida<sup>24</sup> gap bosh bo‘laklari strukturasi kengayish holatlari batafsil ko‘rib chiqilgan. Bularning barchasi hozirgi ingliz tili gaplarini rus tiliga tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishimiz uchun nazariy va uslubiy asos vazifasini o‘taydi. Mazkur tadqiqotda mashhur rus tarjimonlari: V.N.Komissarov<sup>25</sup>, L.K.Latishev<sup>26</sup>, Y.P.Retsker<sup>27</sup>, A.V.Fedorovlarning<sup>28</sup> ishlari ham samarali o‘rin egalladi.

G‘arb tilshunosligida bu masala ham chuqur o‘rganilgan. E.K.Brown, J.E.Miller<sup>29</sup>; A. Downing<sup>30</sup>, R.W. Langacker<sup>31</sup>, G. Leech, J. Svartvik<sup>32</sup>, K. Malmkjær<sup>33</sup>, R. Quirk, S. Greenbaum, G. Leech, J. Svartvik kabi olimlarning<sup>34</sup> ishlari alohida e‘tiborga loyiq, chunki ularda tarixiy retrospektivda ingliz tili gap strukturasi o‘zgarishlarning tizimli tahlili berilgan, misollarda voqelanadigan o‘zgarishlarning sodir bo‘lish sabablari ochib berilgan. G‘arbiy tarjimonlar, xususan, J. Alós<sup>35</sup>, A. Chesterman<sup>36</sup>, D. Glynn, J. Hadley<sup>37</sup> ning ishlari

---

<sup>17</sup> Бархударов Л.С. Структура простого предложения современного английского языка. – М.: Высшая школа, 2006. – 317 с.

<sup>18</sup> Воронцова Г.Н. Очерки по грамматике английского языка. – М.: Изд-во лит. на иностр. языке, 1960. – 410 с.

<sup>19</sup> Ильиш Б.А. Строй современного английского языка. – М.: Наука, 1948. – 290 с.

<sup>20</sup> Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / Рос. Академия наук. Ин-т языкознания. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.

<sup>21</sup> Матвеева Т.В. Полный словарь лингвистических терминов / Т.В. Матвеева. – Р. н/Д: Феникс, 2010. – 562 с.

<sup>22</sup> Почепцов Г.Г. Конструктивный анализ структуры предложения. – К.: Вища школа, 1971. – 373 с.

<sup>23</sup> Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. – М.: Изд-во лит. на иностр. языке, 1957. – 342 с.

<sup>24</sup> Иванова И.П., Бурлакова В.В., Почепцов Г.Г. Теоретическая грамматика современного английского языка: Учебник. – М.: Высшая школа, 2020. – 285 с.

<sup>25</sup> Комиссаров В.Н. Слово о переводе. – М.: Международные отношения, 1973. – 470 с.

<sup>26</sup> Латышев Л.К. Перевод: проблемы теории, практики и методики преподавания. – М.: Просвещение, 1988. – 322 с.

<sup>27</sup> Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Международные отношения, 1974. – 429 с.

<sup>28</sup> Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): Учебное пособие для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высшая школа, 1983. – 380 с.

<sup>29</sup> Brown, E.K., Miller, J.E. Concise Encyclopedia of Grammatical Categories. 1st Edition – L.: Pergamon, October 22, 1999. – 485 p.; Brown, E.K., Miller, J.E. Syntax: A Linguistic Introduction to Sentence Structure. – L., Hutchinson, 2017. – 364 p.

<sup>30</sup> Downing A. English Grammar. A University Course. Third edition. – L.: Routledge, 2015. – 530 p.

<sup>31</sup> Langacker R.W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. – L.: Oxford University Press; Illustrated edition, 2008. – 562 p.

<sup>32</sup> Leech, G., Svartvik, J. A Communicative Grammar of English. – L., Longman, 2016. – 312 p.

<sup>33</sup> Malmkjær K. The Routledge Linguistics Encyclopedia. Third Edition. – L.: Routledge, 2010. – 724 p.

<sup>34</sup> Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., Svartvik, J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – L., Longman, 2019. – 427 p.

<sup>35</sup> Alós, J. Discourse relation recognition in translation: A relevance-theory perspective // Perspectives. – 2016. – No 24(2). – 201–217 pp.

<sup>36</sup> Chesterman, A. The name and nature of translator studies // Hermes – Journal of Language and Communication in Business. – 2017. – No 22(42). – 13–22 pp.

<sup>37</sup> Glynn, D., Hadley, J. Theorising (un)performability and (un)translatability // Perspectives. – 2021. – No 29(1). – 20–32 pp.

tadqiqotimizda qo'llanildi.

Dissertatsiyada qo'yilgan muammolarni hal qilish uchun muallif turli publitsistik materiallardan foydalangan: ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar rasmiy shaxslarining bayonotlari, xususan, Buyuk Britaniya Qirolichasi Yelizaveta II ning murojaati<sup>38</sup>, AQSh Prezidenti Donald Trampning 2016 yildagi saylovlarda g'alaba qozongandan keyingi nutqi<sup>39</sup>, Kanada Bosh vaziri Justin Tryudoning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi<sup>40</sup> va boshqalar. Publitsistik manbalarga yana Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada va boshqa ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlardagi ommaviy axborot vositalarining materiallari hamda ilmiy, davriy va axborot xarakteridagi nashrlar, masalan, AQSh Prezidenti Ma'muriyatining rasmiy veb-sayti<sup>41</sup>, «The Times»<sup>42</sup>, «The Washington Post»<sup>43</sup> gazetlari kiradi.

Dissertatsiya tadqiqoti turli manbalarga tayanadi. Bu muallifga o'rganilayotgan mavzu doirasidagi jarayon va hodisalarni tahlil qilish natijalari asosida ishonchli xulosalar chiqarish imkonini berdi. Umuman, ushbu dissertatsiya ishida ko'rib chiqilayotgan muammo juda dolzarbligi sababli va uning o'rganilish darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, ilmiy jamoatchilikda ushbu mavzuni keng miqyosda lingvopragmatik va tillararo sintaktik tarjima nuqtai nazaridan yoritadigan tadqiqotlarga ehtiyojlar mavjudligi ham namoyon bo'lmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining "Zamonaviy tilshunoslik va tilshunoslikning kommunikativ aspektlari" nomli ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz tilida gap kengayishining tarkibiy-mazmuniy v tahlil qilish, ingliz tilini modifikatsiyalashdagi zamonaviy voqeliklar va tendentsiyalarni hisobga olgan holda, uni rus tiliga tarjima qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

sintaksisdagi majburiylik va ixtiyoriylik tushunchalarini yoritishga bag'ishlangan qarashlarni o'rganish;

elementar sintaktik birlik va elementar sintaktik tuzilish tushunchalarini sharhlash;

hozirgi ingliz tilida gap bosh bo'laklarining kengayish jarayonlarini tahlil qilish;

---

<sup>38</sup> Обращение королевы Великобритании в связи с коронавирусом // Youtube.com. 05.04.2020. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.youtube.com/watch?v=s1YsQyeTCJc> (дата обращения: 05.08.2020).

<sup>39</sup> Полная речь Трампа после победы на президентских выборах в США // Youtube.com. 09.11.2016. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.youtube.com/watch?v=uAK2OOVT9fY> (дата обращения: 05.08.2020).

<sup>40</sup> Выступление премьер-министра Канады Джастина Трюдо на Генассамблее ООН // Youtube.com. 21.09.2017. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.youtube.com/watch?v=tneTf5fZGj4> (дата обращения: 05.08.2020).

<sup>41</sup> US Presidential Administration. [Electronic resource]. URL: <https://www.whitehouse.gov/the-trump-administration/> (reference date: 05.08.2020).

<sup>42</sup> The Times. [Electronic resource]. URL: <https://www.thetimes.co.uk/> (reference date: 05.08.2020).

<sup>43</sup> The Washington Post. [Electronic resource]. URL: <https://www.washingtonpost.com/> (reference date: 05.08.2020).

hozirgi ingliz tilida gap ikkinchi darajali bo'laklarining kengayish jarayonlarini tahlil qilish;

hozirgi ingliz tilida kesim va boshqa gap bo'laklarining murakkablashish xususiyatlarini ochib berish;

hozirgi ingliz tilidagi gaplarni rus tiliga tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob'ekti** ingliz tilida gap strukturasi kengayishi.

**Tadqiqot predmetini** ingliz tilida gap kengayishi tarkibiy mazmuniy tahlili.

**Tadqiqotning usullari** asosiy tilshunoslikdagi asosiy tadqiqot usullariga tayanadi, ular quyidagilar qiyosiy tilshunoslik usuli, distributiv tahlil usuli, konstruktiv tahlil usuli, differentsial tahlil usuli, umumiy ilmiy tadqiqot usullari-induktsiya va deduktsiya.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz tilida gap tarkibining voqelantiruvchi birliklar mohiyati va tamoyillari tushunchasining struktur-semantik, kognitiv, sintaktik-semantika kabi yondashuvlari aniqlangan;

hozirgi ingliz tilida gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarining kengayish, predikat va murakkablashish xususiyatlarining o'zaro ta'sirlashuv jarayonlari aniqlangan;

zamonaviy ingliz tilida kesim va gapning boshqa bo'laklari kengayishiga xos valentlik, argumentativ, pragmasemantik kabi xususiyatlari aniqlangan;

ingliz tilidagi gaplarning kengaytirilgan tuzilmalarini rus tiliga tarjima qilishning modulyatsiya, umumiyashtirish, aniqlashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlari hozirgi ingliz tili gaplarini rus tiliga tarjima qilishdagi antonomik, sinonimik qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha sintaktik o'xshashlik, so'zma-so'z tarjima kabi tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Dissertatsiya materiallari ushbu muammoni kelajakda o'rganish uchun qiziqish uyg'otishi, olingan tadqiqot natijalari o'quv va amaliy maqsadlarda, ta'lim sohasida dissertatsiya natijalaridan tilshunoslik, tarjima nazariyasi va boshqa fanlar bo'yicha o'quv materiallarini tayyorlashda foydalanish mumkin. Amaliy yo'nalishda ish jarayonida olingan xulosalar ingliz tilidagi gaplarni rus tiliga, shuningdek, ingliz tiliga aloqasi bo'lmagan boshqa tillarga tarjima qilish strategiyasini takomillashtirish bo'yicha kompleks tavsiyalarni takomillashtirishda ahamiyat kasb etishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining** ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanayotgan yondashuv va tahlil usullarining zamonaviy tilshunoslik nazariyalariga mos kelishi hamda uslubiy jihatdan asoslanganligi, tadqiqot materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq qo'yilganligi, xulosalarning mantiqan to'g'ri bayon etilganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilganligi va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati uning dolzarbligi va ilmiy yangiligi bilan asoslanadi. Olingan xulosa va natijalar ingliz tilida gap tuzilishini konstruktiv tahlil qilish imkoniyatlari va uni rus tiliga tarjima qilish xususiyatlari haqidagi nazariy bilimlarni kengaytirishga ma'lum darajada hissa qo'shadi. Tadqiqot natijasida olingan nazariy xulosalar

kelgusida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qiladi va publitsistik matnlarning diskursiv va pragmatik xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular oliy o'quv yurtlarining xorijiy filologiya fakultetlarida "Ingliz tili grammatikasi", "Ingliz tili leksikologiyasi", "Ingliz tili stilistikasi", "Tarjimashunoslik" kabi fanlar bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, tilshunoslik nazariyasi, matn lingvistikasi, diskurs va sotsiopragmatika bo'yicha maxsus seminarlar tashkil etishda, yangi o'quv qo'llanmalari, o'quv-uslubiy majmua, lug'at va ma'ruza matnlarini yaratishda, bitiruv malakaviy ishlar va turli dissertatsiyalarni tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Ingliz tilida gap bosh va ikkinchi darajali bo'laklarining kengayish yo'llarini o'rganish va ularning rus tiliga tarjimasi bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy hamda amaliy takliflar asosida:

ingliz tilida gap tarkibining voqelantiruvchi birliklar mohiyati va tamoyillari tushunchasining struktur-semantik, kognitiv, sintaktik-semantika kabi yondashuvlari aniqlanganligi, hozirgi ingliz tilida gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarining kengayish, predikat va murakkablashish xususiyatlarining o'zaro ta'sirlashuv jarayonlari yuzasidan ilmiy natijalaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + 2016-2018-yillarga: 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-SP-ERASMUS+CBHE IME dasturi uchun ishlab chiqilgan "O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi jarayonlarni modernizatsiya va xalqarolashtirish" innovatsion tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021-yil 1-apreldagi 760-son ma'lumotnomasi). Natijada innovatsion tadqiqot loyihasi asosida yaratilgan uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqishga yangi yondashuv sifatida o'qituvchilarning til va muloqot ko'nikmalari oshirilgan, ta'lim sifati mustahkamlangan hamda ingliz tilida nutq tuzilishini kengaytirish qonuniyatlari o'zlashtirilgan va ingliz tili gap strukturalarini rus tiliga tarjima qilish malakalari rivojlantirilgan;

hozirgi ingliz tilida gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarining kengayish, predikat va boshqa gap bo'laklarining murakkablashish xususiyatlari aniqlanganiga oid ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan 2014-2015-yillarda amalga oshirilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassisliklari bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida virtual resurslarni yaratish va joriy etish" innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021-yil 28-avgustdagi 1792-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz tilidagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning kengayishi va murakkablashishida pragmatik omillarning ta'sirini aniqlash usullari va ularni rus tiliga tarjima qilish strategiyalari "Ingliz tili", "Maxsus matnlar tarjimasi" kabi fanlardan virtual resurslarni yaratishga xizmat qilgan;

birinchi marta ingliz tilidagi gaplarning kengaytirilgan tuzilmalarini rus tiliga tarjima qilishning modulyatsiya, umumiyashtirish, aniqlashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlari hozirgi ingliz tili gaplarini rus tiliga tarjima qilishdagi antonomik, sinonimik qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha sintaktik o'xshashlik, so'zma-so'z tarjima kabi tavsiyalar ishlab chiqilgan va kompensatsiya, kalkalash kabi turli

tarjima strategiyalarini qo'llash usullari borasidagi tavsiyalardan 2017-2020-yillarga mo'ljallangan OT-F1-138 "Temuriylar davrida yaratilgan "Xamsa"larning komparativistik tadqiqi" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan, xususan, ingliz tili tarjimonlari uchun tavsiyalar va tarjima muammolarini bartaraf etish yo'llari ishlab chiqilgan (Samarqand davlat universitetining 2022-yil 25-martdagi 20-1115-son guvohnomasi). Natijada samarali tarjima tamoyillarini o'rganishga tegishli ishlab chiqilgan tavsiyalar nazariy va amaliy ahamiyatga oid natijalardan foydalanish Alisher Navoiy matnlari tarjimasida sabab-oqibat munosabatlari va farqlarni bartaraf etish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan asosiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 123 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, mavzuning o'rganilganlik darajasi, ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi, tadqiqot maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti, tadqiqot metodlari, ishning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Gap tuzilishini o'rganishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobi ingliz tilida gap tuzilishini konstruktiv tahlil qilishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan.

"*Sintaksisda majburiylik va ixtiyoriylik*" sarlavhali birinchi faslda sintaksisda majburiylik va ixtiyoriylikni belgilash gapning tuzilishini tushunish va uni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi, qolipga oid majburiy va ixtiyoriy komponentlarni gap strukturasi farqlash masalasi, umuman, majburiy va ixtiyoriy komponentlar muammosining alohida masalasi ekanligi qayd etiladi, chunki ularning ta'rifini biron bir qolipning doiralari bilan cheklab bo'lmaydi. Nazarimizda, bu holat har qanday turdagi strukturani yaratishda asos bo'lgan tuzilmalar sintaksisining umumiy xususiyatidir. Shu munosabat bilan, agar har xil turdagi gapga oid bulgan va oid bo'lmagan qoliplarning tilda mavjudligi tan olinsa hamda ushbu modellar aniq konstruksiyalar ko'rinishida ajratib ko'rsatilsa, nazariy jihatdan sintaktik tushunchalar sifatida mazkur kategoriyalar ajratilgan yoki ajratilmaganligidan qat'iy nazar, muqarrar ravishda mazkur qolipga oid majburiy va ixtiyoriy komponentlar paydo bo'ladi.

Dissertatsiyaning "*Elementar sintaktik birlik tushunchasi*" deb nomlangan ikkinchi faslida ingliz tilida kommunikativ funksiyani amalga oshirish uchun

nopredikativ va predikativ elementar sintaktik birliklar qo‘llanishiga e‘tibor qaratilgan. Ilmiy adabiyotlarda elementar sintaktik birliklar konstruktiv sintaksisning asosiy birliklari sifatida namoyon bo‘lishi, o‘zining minimal hajmi bilan farqlanishi qayd etiladi. Elementar nopredikativ sintaktik birlik faqat bitta kommunikativga ega bo‘lishi mumkin, elementar predikativ sintaktik birlik esa bir nechta boshlang‘ich predikativ bilan tavsiflanadi. Sintaktik birlikka xos birlamchi predikativlik xarakteriga bog‘liq bo‘lgan elementar sintaktik birliklarning gaplar, sentensoidlar va gaplarning reprezentantlari kabi uchta turi mavjud. Tarkibiy jihatdan diskret bo‘lmagan nopredikativ elementar sintaktik birliklar konstruktiv sintaksis nuqtai nazaridan universal tabiatga ega. Predikativ elementar sintaktik birliklar, asosan, tilning tipologik turiga qaratilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, predikativlikda fe‘l komponentining predikativ va kommunikativ imkoniyatlari, ko‘pincha, elementar sintaktik birlikning lingvistik maqomini belgilaydi.

“*Elementar sintaktik tuzilma tushunchasi*” deb nomlangan uchinchi faslda kommunikativ birlik bo‘lmagan so‘z birikmasi ko‘rinishidagi elementar sintaktik tuzilma tushunchasining mazmuni ochib beriladi. Atributiv so‘z birikmasi bundan mustasno, chunki u aloqa birligi bo‘lib, nominativ sintaktik tuzilmalarga taalluqlidir. Atributiv birikmalar qisqartirilgan propozitsiya bilan farqlanadi, ular kommunikativ markazda eng yuqori darajadagi kommunikativ dinamizmga ega bo‘lishi mumkin. Bu muallifning niyatiga yoki fikr (gap)ning kommunikativ maqsadiga bog‘liq. Semantik jihatdan sifatlar juda keng qamrovli so‘z turkumi bo‘lganligi sababli, ular ishtirokida hosil qilingan atributiv konstruksiyalar tarkibiy qismlari o‘rtasida rang-barang semantik bog‘lanishlarga ega bo‘ladi. Ko‘pincha sifat atributiv so‘z birikmasining asosiy ma‘nosini anglatadi, ot esa tarkibiy komponentga aylanadi. Atributiv so‘z birikmasining sintaktik pozitsiyasiga bog‘liq holda butun gapning semantik markazi vazifasini bajarishga qodir.

**Tadqiqotning “Hozirgi ingliz tilida sintaktik jarayonlar va ularni rus tiliga tarjima qilish muammolari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz tilidagi hozirgi sintaktik jarayonlar va gap tuzilishining murakkablashish imkoniyatlari tahlil qilinib, ularni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar hamda shu qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilindi, ingliz tilidan rus tiliga matnlarni tarjima qilishda mavjud qiyinchiliklarning sabab-oqibat bog‘lanishlari ko‘rib chiqildi va oradagi farqlarni yo‘qotish imkonini beradigan tarjima strategiyalari aniqlandi.

Bobning “*Gap bosh bo‘laklarining kengayishi*” deb nomlangan ikkinchi faslining birinchi bo‘limida gapning grammatik asosini tashkil etuvchi ega va kesim gapning bosh bo‘laklari ekanligi, gapdagi boshqa so‘zlarga bog‘liq emasligi, qolgan so‘zlarning shakli esa ega yoki kesimga mutanosib tarzda namoyon bo‘lishi qayd etiladi. Ingliz tilidagi gaplarning kengaytirilgan bosh bo‘laklarini tarjima qilishda quyidagi tarjima usullari qo‘llaniladi: sintaktik assimilyatsiya yoki so‘zma-so‘z tarjima, konkretlashtirish, umumlashtirish, antonimik tarjima, kompensatsiya va modulyatsiya (semantik rivojlanish).

Sintaktik moslashtirish vositasida eganing kengayishiga quyidagi misolni keltirish mumkin (so‘zma-so‘z tarjima): «Playing on the nerves is the best he can»<sup>44</sup> . - «Игра на нервах – это лучшее, что он умеет». Antonimik tarjima

---

<sup>44</sup> Fisher M., Jacobs Sh., Kelley P. America’s 250,000 covid deaths: People die, but little changes // The Washington Post. – November 19, 2020. – [Electronic resource]. – URL:

yordamida kesimning kengayishiga misol: «He evidently wished to return to his cabinet»<sup>45</sup>. - «Ему явно не терпелось вернуться к себе в кабинет». Umumlashtirish orqali kesimni tarjima qilishga misol esa: «Russia, Belarus, Kazakhstan and Kyrgyzstan met to discuss work plans for 2013»<sup>46</sup>. – «Страны Евразийского экономического пространства встретились обсудить рабочие планы на 2013». Modulyatsiya (mazmun jihatidan) vositasida kesimning kengayishi: «Will plummeting oil prices succeed in reining in Vladimir Putin's aggressive foreign policy where Western diplomacy and economic sanctions have so far failed?»<sup>47</sup> – «Сумеют ли падающие нефтяные цены обуздать агрессивную внешнюю политику Владимира Путина, что пока не удается сделать западной дипломатии и экономическим санкциям?».

«Gap ikkinchi darajali bo'laklarining kengayishi» sarlavhali ikkinchi bobda bosh bo'laklarni tushuntirishga xizmat qiladigan va ularni izohlovchi ikkinchi darajali bo'laklariga ega bo'lishi mumkin bo'lgan gapning ikkinchi darajali bo'laklari tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi gaplarning kengaytirilgan ikkinchi darajali bo'laklarini tarjima qilishda ham gapning kengaytirilgan bosh bo'laklarini tarjima qilishdagi yuqorida zikr etilgan tarjima usullari qo'llaniladi. Tadqiqotimiz ingliz tilidagi gaplarning kengaytirilgan ikkinchi darajali bo'laklarini rus tiliga o'girish uchun sintaktik assimilyatsiya (so'zma-so'z tarjima) usuli tanlanganda, ushbu gaplar tarjimada kengaytirilgan tarkibini saqlab qolishini ko'rsatdi. Konkretlashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanish ingliz tilida gaplarning kengaytirilgan ikkinchi darajali bo'laklarining qo'shimcha kengayishiga yoki qisqarishiga olib keladi. Antonimik tarjimada hamda kompensatsiya va modulyatsiyada (semantik rivojlanishda) ikkinchi darajali bo'laklar o'zlarining kengayishini saqlab qolishlari mumkin (grammatik konstruksiyalar mos va o'xshash bo'lgan holatlarda), biroq ularning qisqarish yoki qo'shimcha kengayish holatlari ham kuzatiladi. Umuman olganda, tadqiqot tarjimaning har bir holati o'ziga xosligini ko'rsatdi. Shuning uchun ingliz tilidagi gaplarning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarining kengayishidagi o'zgarishlarini faqat rus tiliga tarjima qilganda yaqqolroq ko'rsatib berish mumkin. Shuni ham unutmaslik kerakki, ko'p narsa tarjimonning mahorati va ijodkorlik darajasiga bog'lik.

Dissertatsiyaning **“Gap strukturasiining murakkablashishi”** nomli uchinchi bobida bosh va ikkinchi darajali bo'laklari kengaytirilgan va murakkablashtirilgan ingliz tilidagi gaplarni rus tiliga tarjima qilishda ularning tuzilishini aksariyat hollarda saqlab qolish mumkinligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, ingliz va rus tillari grammatikasidagi mavjud farqlar tufayli, har bir alohida olingan holatda eng mos tarjima usullarini tanlagan holda tarjima transformatsiyalaridan foydalanish zarur.

---

[https://www.washingtonpost.com/national/covid-250000-deaths-us/2020/11/18/543f8e04-284c-11eb-8fa2-06e7cbb145c0\\_story.html](https://www.washingtonpost.com/national/covid-250000-deaths-us/2020/11/18/543f8e04-284c-11eb-8fa2-06e7cbb145c0_story.html) (reference date: 19.11.2020).

<sup>45</sup> Eardley N. Election results 2019: Boris Johnson returns to power with big majority // BBC. – News. – December 13, 2019. – [Electronic resource]. – URL: <https://www.bbc.com/news/election-2019-50765773> (reference date: 19.11.2020).

<sup>46</sup> The 24th Session of the Eurasian Economic Commission Board Was Held // Eurasian Economic Commission. – August 21, 2013. – [Electronic resource]. – URL: <http://www.eurasiancommission.org/en/nae/news/Pages/21-08-2013-2.aspx> (reference date: 19.11.2020).

<sup>47</sup> Oil Crisis Challenges Putin's Power // Yale Global. – April 18, 2020. – [Electronic resource]. – URL: <https://oilprice.com/Geopolitics/International/Oil-Crisis-Challenges-Putins-Power.html> (reference date: 19.11.2020).

Tarjimani takomillashtirish zarurati rus tilida turg'un iboralarning mavjudligi bilan ham bog'liq. Bunday iboralar matn mazmunini, muallifning niyati va uslubini yetkazish nuqtai nazaridan ingliz gaplarining muqobillariga aylanadi. Xar bir tarjima uziga xos xisoblanadi, shu sababli, ingliz tilidagi gaplarning bosh va ikkinchi darajali bulaklarini rus tiliga tarjima qilishda, tarjima sifati tarjimonning maxorati va uning ijobiy yondashuviga boglik buladi. Konkretlashtirish yordamida kengaygan to'ldiruvchi tarjimasi: «The rain came in torrents»<sup>48</sup> – «Полил сильный дождь». Ushbu to'ldiruvchi «silnyy» sifatidan foydalanish orqali ingliz tilida ifodalangan. Umumlashtirish orkali to'ldiruvchini tarjima qilish: This is why America is comfortable with holding «World Series» and «World Championships» in which only Americans participate, as is the case with American football and baseball»<sup>49</sup>. – «Именно поэтому в Америке так популярны чемпионаты мира, где участвуют только американцы, как в случае с американским футболом или бейсболом». Bu holatda gapni rus tiliga tarjima qilishda «чемпионаты мира» termini so'zlovchilar uchun tushunarli bulgan realiyalar bilan ifodalanishi lozim. Antonimik tarjima yordamida sonni tarjima qilishga quyidagi gap misol bo'la oladi: «Not many people want to be cured»<sup>50</sup>. – «Мало кто соглашается на лечение». Bunda antonimik tarjima rus tilida so'zlovchilar uchun fikrni izohlaydi. «Немногие люди хотят вылечиться» iborasi rus tilida g'alati ma'no anglatgan bulardi. Lekin «Мало кто соглашается на лечение» iborasi aks ma'no anglatishi ham mumkin.

“Kesimning murakkablashishi” deb nomlangan birinchi faslda kesim ingliz tilidagi gapda markaziy bo'g'in bo'lib, u birdan to'rtagacha fe'lni o'z ichiga olishi mumkin degan xulosa tasdiqlanadi. Olimlar tomonidan kesimning murakkablashish turlarining keng tasnifi ishlab chiqilgan, ushbu holatlar u bilan bog'liq holda o'rganilgan barcha til uyg'unligi va iboralar aniqligini saqlaydigan tizimning barqarorligi bilan ajralib turadi. Tarjimaning sifati va ishonchliligi yuqori darajada bo'lishi uchun predikatlar murakkablashishining barcha turlarini qamrab olish muhimdir. Buning uchun tarjimonlarga maxsus tarjima strategiyalariga tayanish tavsiya etiladi.

Dissertatsiyada murakkab kesimni tarjima qilishning turli vositalari aniq misollarda dalillanadi: «During the press conference, Boris Johnson *urged* people *to follow* the latest rules *to stop* hospitals becoming overwhelmed with coronavirus patients»<sup>51</sup>. - «Во время пресс-конференции Борис Джонсон призвал людей следовать последним правилам, чтобы предотвратить переполнение больниц пациентами с коронавирусом» (дословный перевод); «*He told me to come right over, if I felt like it*». – «Сказал, хоть сейчас приходите, если надо»

---

<sup>48</sup> Britain ... In The Vietnam War? // Forces.net. – May 2, 2019. – [Electronic resource]. – URL: <https://www.forces.net/heritage/history/britain-vietnam-war> (reference date: 19.11.2020).

<sup>49</sup> Best ever: recalling the 2018 FIFA World Cup // Moscow Mayor official website. – July 17, 2019. – [Electronic resource]. – URL: <https://www.mos.ru/en/news/item/58750073/> (reference date: 19.11.2020).

<sup>50</sup> Grashkin A. Russian Neo-Imperialism in Ukraine and Greece // Foreign Policy Research Center. – July 31, 2019. – [Electronic resource]. – URL: <https://www.fpri.org/article/2019/07/russian-neo-imperialism-in-ukraine-and-greece/> (reference date: 19.11.2020).

<sup>51</sup> Fiorillo C. Boris Johnson second lockdown speech: What did the PM announce today // The Sun. – November 5, 2020. – [Electronic resource]. – URL: <https://www.thesun.co.uk/news/13115963/boris-johnson-second-lockdown-speech-parliament-today/> (reference date: November 5, 2020).

(конкретизация); «*Wouldn't you like a cup of hot chocolate before you go?*»<sup>52</sup>. — «Выпьешь чашку горячего шоколада на дорогу? » (генерализация); «Joe Biden *didn't say anything*»<sup>53</sup>. — «Джо Байден промолчал» (антонимичный перевод); «Well done!»<sup>54</sup> — «Bravo! Molodes!» (компенсация); «That was just a state that if we *would have gotten* it, it *would have been* nice. Arizona. But there's a possibility, maybe even a good possibility»<sup>55</sup>. — «Это был штат, получить который было бы прекрасно. Аризона. Есть такая вероятность, может быть, даже хорошая возможность» (модуляция).

